SHAHAR CHIQINDILARDAN MUQOBIL ERGIYA SIFATIDA FOYDALANISH VA UNING O‘ZBEKISTONDAGI KELAJAK ISTIQBOLI

Rahmonov Shahobiddin Safaralievich
Qarshi davlat texnika universiteti “Elektr ta’minoti va intellektual energetik tizimlar”kafedrasi assistent o‘qituvchisi
E-mail: shahobiddinziyo997.gmail.com
Zavqiyev Dilshodbek Siddiqjon o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti “Elektr ta’minoti va intellektual energetik tizimlar”kafedrasi elektr energitika yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Hayot manbaining eng asosi bo‘lgan ona-tabiatni asrash bugungi kunda insoniyat oldiga qo‘yilayotgan eng muhim vazifalardan biridir.Hammamizga ma‘lumki dunyo aholisining ko‘p qismi atrof-muhitning notozaligidan,ichimlik suvuning yetishmovchiligidan,sof toza oziq ovqatning yetishmovchiligidan aziyat chekib kelmoqda.Shularni hisobga olgan holda bugungi kunda aholidan,sanoat korxonalaridan ajralib chiqayotgan chiqindilarni qayta ishlash ulardan boshqa turdagi energiya misol uchun elktr energiya,tabiiy gaz sifatida ishlatish oldimizga qo‘yilhan muamoning eng aptimal yechimlardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Atrof-muhit,Muqobil energiya,chiqindi,issiqlik energiyasi, utilizatsiya, biologik chiritish, polietilen paketlar.

Аннотация. Сохранение матери-природы, источника жизни, является одной из важнейших задач, стоящих сегодня перед человечеством. Все мы знаем, что большая часть населения Земли страдает от загрязнения окружающей среды, недостатка питьевой воды и отсутствия чистой пищи. Учитывая это, сегодня переработка отходов, образующихся в жизнедеятельности населения и промышленных предприятий, и использование их в качестве других видов энергии, например, электроэнергии или природного газа, является одним из наиболее оптимальных решений стоящей перед нами проблемы

Ключевые слова: Окружающая среда, Альтернативная энергия, отходы, тепловая энергия, утилизация, биологическое разложение, полиэтиленовые пакеты

Abstract. Preservation of Mother Nature, the source of life, is one of the most important tasks facing humanity today. We all know that most of the Earth's population suffers from environmental pollution, lack of drinking water and lack of clean food. Taking this into account, today recycling waste generated by the life of the population and industrial enterprises and using it as other types of energy,

ISSN 3030-3907

such as electricity or natural gas, is one of the most optimal solutions to the problem we face

Keywords: Environment, Alternative energy, waste, thermal energy, recycling, biodegradation, plastic bags.

Kirish

Shahar chiqindilaridan organik yoqilg‘i sifatida foydalanib, ana‘naviy usulda issiqlik energiyasi yoki elektroenergiya ishlab chiqarish mumkin. Ammo shahar chiqindilarning hammasidan organik yoqilg‘i sifatida foydalanish maqsadga muvofiq emas. Uning yoqilg‘i sifatida yoqish mumkin bo‘lgan qismidangina organik yoqilg‘i sifatida foydalanish mumkin. Shuning uchun shahar chiqindilarining asosi bilan qisqacha tanishib o‘tamiz.

Ma‘lumki katta kichik shaharlarining barchasida maishiy chiqindilar mavjud. Har yili butun dunyoda $25 \cdot 10^9$ (25000000000) tonna chiqindilar hosil bo‘ladi. Atrof-muhitni tozaligi, shahardagi insonlarning sog‘ligi chiqindilarni o‘z vaqtida yig‘ib utilizatsiya qilishga bog‘liqdir.

Katta shaharlarda chiqindilarni qayta ishlash muhim ahamiyatga ega. Chiqindilarni qayta ishlash natijasida er yuzida kam qolgan juda ko‘p resurs va materiallar tejaladi. Masalan, Evropadagi firmalardan biri, chiqindilar tarkibidan oltin ajratib olishni yo‘lga qo‘yilgan.

Chiqindilarni qayta ishlash uchun ularni yig‘ish zarur. Yig‘ish ishlari ham har xil amalga oshiriladi. Ba‘zi joylarda chiqindilar aralashgan holda yig‘iladi, ba‘zi joylarda esa chiqindi turiga qarab alohida alohida qilib yig‘iladi.



1-rasm. Ajratilgan uy chiqindilari: 1 - shisha idishlar; 2 - yupqa plastik; 3 - qalin plastik; 4 - karton; 5 - aralash chiqindi; 6 - temir bankalar; 7 – qog‘oz; 8 - polistirol; 9 - shisha; 10 – batareya-lar; 11 – metall; 12 - organik chiqindilar; 13 - «Tetrapak» o‘rama materiallari; 14 - gazlama; 15 - tualet chiqindilari

ISSN 3030-3907




2-rasm.Aralash holda yig‘ilgan chiqindixona.Qarshi shahridan olingan lavha.

Chiqindilarni boshqarish tizimi - bu chiqindilarni yig‘ish, tashish, qayta ishlash, ikkalamchi foydalanish yoki ultilizatsiya qilish va barcha jarayonni nazorat qilishdan iboratdir. Chiqindilar inson faoliyatining mahsulidir. Tabiatiga nisbatan organik chiqindilar (o‘simlik va oziq-ovqat, hamda qog‘oz chiqindilari) ni biologik tarzda chiritish mumkin.

Biologik qayta tayyorlash natijasida olingan organik moddalar, qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikda organik o‘g‘it sifatida ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari chirish jarayonida hosil bo‘lgan gazdan (masalan, biogaz-metan) isitishda va elektr energiya ishlab chiqarishda foydalanish mumkin. Qayta ishlanma chiqindilardan dvigatellarga yoqilg‘i sifatida foydalanish mumkin yoki ularni boshqa energiya turiga aylantirish mumkin.


ISSN 3030-3907



3-rasm.Shahar chiqindilarni tashish transporti.Qarshi shahardan olingan lavha.

Chiqindilarga yuqori haroratda ishlov berish natijasida ulardan yoqig‘i manbasi sifatida foydalanib, undan ovqat pishirish, binolarni isitish, bug‘_qozonlarini ishlatib bug‘_ va elektr energiya olish mumkin.

Chiqindilarni boshqarishning asosiy usullaridan biri-chiqindilarni to‘planib qolishning olidni olishdir. Buning uchun birinchi galda, ikkinchi marta foydalanish usulini qo‘llash lozim. Masalan, ishdan chiqqan jihoz va asboblarni yana foydalanish uchun ta‘mirlash, ko‘p marta foydalaniladigan buyumlar (oziq ovqat mahsulotlarini olib yurish va saqlash uchun polietilen paketlar emas balki latta paketlar) tayyorlash, ko‘p marta foydalaniladigan buyumlarni (bir marta foydalaniladigan oshxona jihozlari-qoshiq, sanchiq, stakan va boshqalar) ishlatishni targ‘ib qilish, banka va paketlarni oziq-ovqat qoldiqlaridan tozalash va boshqalar.




4-rasm.Shahar chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasi.

Dolzarbligi.Bugungi kunda butun dunyoni elektr energiya tanqisligi,ekologik muamolar qamrab olgan bir vaqtda aholidan chiqayotgan chiqndilarni muqobil energiya sifatida samarali yo‘lga qo‘yish, yangi

ISSN 3030-3907

texnologiyalarni joriy qilish soha mutaxasislarning oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalaridan biridir.Bu esa o‘z navbatida bizga shahar chiqindilardan elktr energiya,issiqlik energiya va boshqa energiyaga aylantirish bilan birga atrof-muhitning ifloslanishini oldini oladi.



5-rasm.Shahar chiqindixonalarida maishiy xizmat ko‘rsatish.Qarshi shahridan olingan lavha

Xulosa. Xulosa o‘rniga shuni aytishimiz keraki bugungi kunda aholi soni oshib borishi bilan birga shaharlarning industirial rivojlanib borishi yaqol ko‘zda tashlanadi.Aholidan,zavot fabrikalardan chiqayotgan chiqindilarni tartibli joylashtirish har birimizning asosiy vazifalarimiz hisoblanadi.Bunung uchun ularni maxsus chiqindixonalarga tartib bilan joylashtirish,yo‘laklarda,aholi zich joylashgan joylarda maxsus chiqindi to‘planadigan idishlardan foydalanish,o‘sib-ulg‘ayib kelayotgan yosh avlod ongiga Vatan,atrof-muhitni asrashni sindirish har bir insonning asosiy burchi hisoblanadi.

Hozirgi kunda Respublikamizga ham aholidan chiqayotgan chiqindilardan muqobil energiya sifatida foydalanishga qator chora tadbirlar ko‘rilmoqda.Soha mutaxasislari tomonidan turli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.2025-yil muhtaram yutboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan “**Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili**”deb e‘lon qilinishi buning yaqol isbotidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 31.05.2023 yildagi PF-81-son
2. “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.09.2024 yildagi PF-149-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta’minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

ISSN 3030-3907

3. Karimov R.Ch., Rafiqova G.R., Usmanov E.G., Ro‘zinazarov M.R. «Yo‘nalish-ga kirish». O‘quv qo‘llanma. – T.: ToshDTU, 2020. – 234 b.
4. A.B. Sa’dullayev, O.O.Zaripov, A.P.Umirov, I.I.Ibragimov “Elektr ta'minoti tizimida muqobil energiya manbalari” o‘quv qo‘llanma - Toshkent: «Yosh avlod matba», 2022. -172 b.

ISSN 3030-3907